

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAIMOVA AZIZA MUXAMMADOVNA

BADIIY NASRDA TARIXIY INVERSIYA NAZARIYASI VA POETIKASI
(INGLIZ VA O‘ZBEK ASARLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Naimova Aziza Muxammadovna

Badiiy nasrda tarixiy inversiya nazariyasi va poetikasi (ingliz va o'zbek asarlari misolida).....3

Наимова Азиза Мухаммадовна

Теория и поэтика исторической инверсии в художественной прозе (на примере английских и узбекских произведений).....21

Naimova Aziza Mukhammadovna

Theory and Poetics of Historical Inversion in Fiction (on the Example of English and Uzbek Works)43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAIMOVA AZIZA MUXAMMADOVNA

**BADIIY NASRDA TARIXIY INVERSIYA NAZARIYASI VA POETIKASI
(INGLIZ VA O‘ZBEK ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3535 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	O'rayeva Darmon Saidaxmedovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Jo'rayeva Malohat Muxammedovna filologiya fanlari doktori, professor Qurbonova Nodira Roziqovna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «04» yanvar soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (502 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «16» dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «16» dekabr dagi 24-39 - raqamli reestr bayonnomasi.)



M.Q.Baqoyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati Jahon adabiyotida mustaqil janrlar sifatida baholangan roman, qissa, hikoyalar ijtimoiy hayotni, jamiyat va inson ongi taraqqiyotini aniq, xronologik aspektda, ba'zan prospeksiya yoki retrospeksiya usullarida tarixiy inversiya vositasida aks ettirishi, bashariyat va muayyan millat o'tmishini haqiqat yoxud badiiy to'qima sintezida ifodalashi nuqtai nazaridan epik turning boshqa namunalari orasida o'ziga xoslik kasb etadi. Bunda tarixiy inversiyadan foydalanish asoslari, u orqali shaxs konsepsiyasi va hayot voqeliklarining ifodalanish tamoyillarini aniqlash nazariy poetika qonuniyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotida epik janr muammosi, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, nasriy asarlar estetikasida xarakter masalasi, dunyo xalqlari romanchiligi, qissachiligi va hikoyachiligida jahon (Sharqu G'arb) adabiyotining ko'p asrlar davomida to'plagan badiiy-estetik tajribalari, o'zaro aloqa-bog'lanishlar talqiniga doir keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Shu doirada badiiy nasrning poetik rivojlanishiga folklor, Sharq mumtoz adabiyoti, G'arb nasri yutuqlari, roman, qissa va hikoyalarda borliqni badiiy-falsafiy, ijtimoiy-konseptual yo'sinda idrok etish qoidalari, nasr namunalari tarixiy inversiya hodisasini sof ilmiy-nazariy muammo sifatida tadqiq qilish, bu tipdagi asarlarning o'ziga xos spesifikasini aniqlash, ustuvor poetik alomatlar, nasriy asarlar badiiy qurilmasida tarixiy inversiyaning poetik vazifalari, ularda tarixiy inversiya ko'rinishlari va ifoda vositalarini asoslashda xizmat qiladi.

Milliy mustaqillik hamma sohalar kabi adabiyotshunoslikda ham yangi imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berdi. "Xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratish"¹ga da'vat etildi. Ayniqsa, tarixiy va fantastik asarlarda kelajakning bashorat qilinishi bilan bog'liq haqqoniy motiv hamda obrazlarni chuqur ilmiy o'rganishga yo'l ochildi. Adabiyot ilmiga yangi va zamonaviy tadqiq usullari jalb qilinib, badiiy matnni jahon ilmiy-nazariy tafakkuri mezonlari asosida tahlil etishga intilish, harakatlar kuchayib borayapti. Nasr namunalari tarixiy inversiya hodisasini nazariy-konseptual umumlashmada tahliliy-qiyosiy maxsus o'rganish ushbu tadqiqot mavzusiga alohida ilmiy dolzarblik baxsh etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrda PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvarda PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyunda PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. [www.http:// prezident.uz/uz/lists/view/137](http://prezident.uz/uz/lists/view/137).

sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida tarixiy inversiya nazariyasi va poetikasiga daxldor tadqiqotlar kam bo'lsa-da, mavjud.² Xususan, bu masalaga M.M.Baxtin jiddiyroq diqqat qaratgan.³ Lekin dunyo adabiyotshunosligida badiiy zamon va badiiy makon muammosining ilmiy-nazariy muammolariga e'tibor balandroq.⁴

² Шубин Р. «Историческая Инверсия» Михаила Бахтина в свете консервативного, прогрессивного и мифотворческого Мышления. — П.: Przeglad Rusycystyczny, 2021. — С. 7-25. <https://orcid.org/0000-0002-7603-5336>; Шубин Р. "Чаемое будущее" и "идти вперед" — категория будущего в научном творчестве Михаила Михайловича Бахтина. — П.: Studia Rossica Posnaniensia, 2022. — С. 103-114. DOI: <https://doi.org/10.14746/strp.2022.47.2.7>; Айрапетян В. Толкуя слово. Опыт герменевтики по-русски. Москва: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2011; Бердяев Н. Смысл истории, Москва: Мысль, 1990; Брежнева Е. «Время внешнее» и «Время внутреннее» в поэтике романов Вирджинии Вулф. — П.: Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология, 2011. — С. 225-231. <https://cyberleninka.ru/article/n/vremya-vneshnee-i-vremya-vnutrennee-v-poetike-romanov-virdzhinii-vulf>; Ярская В. Инверсия времени как механизм памяти в контексте культуры // Власть времени: социальные границы памяти. Сб. статей по мат. рос. конф. «Культура, время, память», СГТУ и ЦСПГИ / Под ред. В. Ярской и Е. Ярской-Смирновой. М.: ООО «Вариант», ЦСПГИ, 2011а.; Мейлах Б.С. Проблемы ритма, пространства и времени в комплексном изучении творчества // Ритм, пространство и время в литературе и искусстве. — Л.: Наука, 1974; Пропп В.Я. Фольклор и действительность. — М.: Наука, 1976. — 325 с.; Мелегинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. — М.: Наука, 1986. Тураева З. Категории времени. Время грамматическое и время художественное (на материале английского языка). — М.: Высшая школа, 1979; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. — М., 1975.; Хализев В.Е. Время и пространство. Теория литературы. — М.: Высшая школа, 1999; Шутая Н. Типология художественного времени пространства в русском романе XVIII–XIX вв: Дисс. ...док-ра. филол. наук. — М., 2007.

³ Baxtin M.M. Romandagi vaqt va xronotop shakllari. Tarixiy sheriya haqida insholar // Baxtin M.M. Adabiyot va estetika. — М.: Rassom, 1975. — 407 b. (U. Jo'raqulov tarjimasini).

⁴ Fraser J.T.. Time and time again. Leiden • Boston. Brill, 2007. — P. 433; Aspect of Time. Edited by C.A. Patrides. — N.Y.: Manchester University Press, 1976. — P.187; Sieber, Sharon Lynn. "Postmodern Infundibula and Other Non-Linear Time Structures in 'Breakfast of Champions, Slaughterhouse-Five', and 'Sirens of Titan.'" Hungarian Journal of English and American Studies (HJEAS) 17, no. 1 (2011): 127–41. <http://www.jstor.org/stable/43921805>; Miller, J. Hillis. "Time in Literature." Daedalus, vol. 132, no. 2, 2003, pp. 86–97. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/20027843>; Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. — М.: Наука, 1979. — С.209; Лихущина М.В. Художественное время и его особенности // Общество: философия, история, культура. 2021. №2 (82).URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hudozhestvennoe-vremya-i-ego-osobennosti>; Федорова Л.Н. Категория ретроспекции в художественном тексте (на материале английского языка): Дисс... канд. филол. наук. — М., 1982; Морозова Е. В. Грамматическая категория пространственно-временного континуума в художественном тексте: Дис. ... канд. филол. наук. — М., 1984; Слюсарева Н. А. Проблемы функциональной морфологии современного английского языка. — М.: Наука, 1986. — С. 70; Успенский Б. А. Поэтика композиции. — М., 1970. — С. 139; Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического

O‘zbek adabiyotshunosligida adabiy jarayon, nasr, badiiy sintez, folklorizmlar tadqiqi, adabiy-badiiy mushtaraklik borasida bir qancha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga kelganki, ular bevosita yoki bilvosita ushbu tadqiqotimiz obyekti va predmetiga daxldorligi bilan e‘tiborga molik.⁵

N.Xudoyberdiyeva magistrlik dissertatsiyasida tarixiy inversiya masalasiga ilmiy yondashgani kuzatiladi.⁶

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi
Tadqiqot Buxoro davlat universitetining “O‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy nasrda tarixiy inversiya hodisasi va poetik xususiyatlarining ingliz hamda o‘zbek romanlari misolida universal va o‘ziga xosliklarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy ijodda “vaqt” tushunchasi, uning mohiyati hamda ifoda rakurslarida zamon kategoriyasining ahamiyatini ochib berish;

ingliz va o‘zbek adabiyotida tarixiy inversiya hodisasidan foydalanish asoslarini ilmiy-nazariy, qiyosiy-tipologik aspektda aniqlash;

исследования. — М.: Наука, 1981. — С.106; Meyerhof H. Time in Literature. — Berkeley-Los Angeles: University of California Press, 1960; James A., Heffernan W. Space and time in literature and the visual arts. — Soundings: An Interdisciplinary Journal, 1987. — Vol. 70. — №1/2; Rodrigues A. and etc. Studies on Time: Time in Literature. Institute of Advanced Studies of the University of São Paulo. — Berkley, Los Angeles: Un-ty of California Press, 1991; Vukanovićand M., Grmuša L. Space and Time in Language and Literature. — Cambridge Scholars Publishing, 2009; Bemong N., Borghart P. and etc. Bakhtin's theory of the literary chronotope: reflections, applications, perspectives. — Belgium: Gent, Academia Press, 2010; Culler J. Literary theory. — New York: Oxford University Press Inc, 2011; Atkins M. Time and Space Reconsidered the Literary Landscape of Murakami Haruki. PhD Thesis. SOAS. — University of London, 2012.

⁵ Shonazarov Yu. 20-30 yillar o‘zbek va tojik romanlarida xarakter yaratishning ba’zi masalalari (qiyosiy va qiyosiy-tipologik aspektlarda): Filol. fan. nomz. ... diss. — Toshkent, 1992; Samandarov I. O‘zbek tarixiy romanlarida tarixiylik: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. — Toshkent, 1992; Abutaliev E.I. Prostranstvo i vremya v russkoyazychnoy proze Sredney Azii (na materiale tvorchestva Timura Pulatova i Timura Zulfuqarova): Diss. ... kand. filol. nauk. — Tashkent, 1993. —158 s.; Quvvatova D. O‘zbek ilmiy-badiiy fantastikasida folklor motivlari: Filol. fan. nomz. ...diss. — T., 1997; Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. — 198 b.; Akobirova S. Amerikanskaya literatura i Vostok (na primere pervoy polovini XX veka): Avtoref. diss. ... kand. filol.nauk. — Tashkent, 2002; Qodirov K.N. O‘zbek sehrli ertaklarida zamon va makon talqini: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. — T., 2004; Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. — T.: Fan, 2006. — 203 b.; Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: muallif, janr, xronotop. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. — B. 74; Jo‘raqulov U. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. Monografiya. — Toshkent: Turon-iqbol nashriyoti, 2017; Kosimov A. Tipologik o‘xshashliklar va o‘zaro ta’sirning nazariy muammolari (A. de Sent-Ekzyuperi va A.Kamyu ijodi misolida): Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. — Farg‘ona, 2007; Kasimova Z. Kontseptsiya mira i cheloveka skvoz prizmu traditsiy natsionalnoy i mirovoy literaturi: Avtoref. diss. ...d-ra filol. nauk. — Tashkent, 2011; Kamilova S. Nравstvenno-psixologicheskie iskaniya v xudojestvennoy literature 70-90-x godov XX veka (na materiale proizvedeniy V. Rasputina i A. Yakubova): Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. — Tashkent, 2008; To‘rayeva B.B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Buxoro, 2023. — 72 b.

⁶ Xudoyberdiyeva N.O‘. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi // “Zamonaviy filologiyada integratsion jarayonlar” mavzusida respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy onlayn-anjuman. — Buxoro, 2020; Xudoyberdiyeva N.O‘. O‘zbek romanlarida tarixiy inversiyani berish usullari va vositalari // “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari. 15-son. — Buxoro, 2020; Xudoyberdiyeva N.O‘. O‘zbek adabiyotida tarixiy inversiya va folklor xronotopidan foydalanish an‘naviyiligi // Magistrantlar va iqtidorli talabalarning “Tafakkur va talqin” mavzusidagi ilmiy-nazariy onlayn konferensiyasi materiallari. — Buxoro, 2020.

tarixiy inversiya hodisasining poetik mohiyatini, modern hamda postmodern romanlardagi o‘rni hamda rolini ochish;

nasriy asarlar badiiy qurilmasida tarixiy inversiyaning poetik vazifalarini, ularda tarixiy inversiya ko‘rinishlari va ifoda vositalarini asoslash;

tush, bashorat, mif, afsona, rivoyat, naql, xayol, xotira kabilarning tarixiy inversiyani hosil qilishdagi poetik ahamiyatini dalillash;

tarixiy inversiya hodidasidan ingliz va o‘zbek adiblari foydalanishidagi tipologik hamda individual mahorat belgilarini ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat”, Salman Rushdining “Midnight’s Children” hamda Devid Mitchellning “Cloud Atlas” romanlari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek badiiy nasri namunalaridagi tarixiy inversiya hodisasi va poetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, tarixiy-funksional, analitik, struktur-semiotik, psixoanalitik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko‘rinadi:

ingliz va o‘zbek nasrida tarixiy inversiya badiiy asar strukturasi tashkil qilgan epik matn maydonida yo tugun, yo yechim sifatida asarning syujet va kompozitsiyasini uyushtirib kelishi, ijodkorning olam tuzilishi haqidagi tasavvuri va dunyoqarashini badiiy xarakterlar orqali aks ettirish vositasi, o‘ziga xos adabiy-estetik kategoriya sifatida undan har bir yozuvchi o‘z ijodiy niyati va yaratayotgan asarining g‘oyaviy konsepsiyasidan kelib chiqqan holda foydalanishi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek badiiy nasrida tarixiy inversiyaning kelajak, abadiylik, kelajak zamoni esxatologik va murakkab tarkibli turlari uning meta-rivoyat, metafiksatsiya va mifopeya adabiy hikoya qilish texnikasi va janrlari bilan o‘zaro sintezlashtirilgan variantlarda ifodalaniib kelishi asoslangan;

tarixiy inversiya arxetip, aynizamonlik va esxatologizm singari badiiy hodisalar bilan uyg‘unlashib, mifopeya, tarixiy, maishiy, zamonaviy spekuliyativ fantastika janrida yaratilgan apokaliptik va post-apokaliptik ruhdagi nasr namunalari badiiy strukturasi tush, bashorat, mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, xayol, xotira kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi dalillangan;

adabiy matnda davr holati hamda obrazlar ichki dunyosini ifodalashda asosiy texnika vazifasini vaqt konsepsiyasi bajarishi va badiiy vaqt muammosining o‘rin almashinuv holatini tarixiy inversiya hodidasidan tashqari, xarakterologik, anaxronizm, kompozitsion, fleshbek, flesh-forvard, analepsiya, retrospeksiya, prospeksiya kabi badiiy asar tarkibidagi ko‘rinishlar orqali voqelanishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o‘zbek qiyosiy adabiyotshunosligida ilk bor tarixiy inversiya hodisasining nasr namunalaridagi poetik o‘rni va vazifalari ingliz va o‘zbek adiblari romanlarining qiyosiy tadqiqi asosida belgilab ko‘rsatilgan;

“tarixiy inversiya” terminining mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, belgilari, vosita va badiiy mezonlari, qo‘llanish sabab hamda omillari nazariy poetika nuqtai nazaridan ochib berilgan;

tarixiy inversiya ko‘pincha tarixiy, maishiy, fantastik nasriy asarlarda tush, bashorat, mif, afsona, rivoyat, naql, xayol, xotira ko‘rinishlarida kelishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada muammoning qiyosiy-tipologik, tarixiy-funksional, analitik, struktur-semiotik, psixoanalitik kabi usullar asosida tadqiq etilgani, jahon, xususan, milliy so‘z san‘ati tamoyillariga asoslangan holda nazariy xulosalar chiqarilgani, ma‘lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, ingliz va o‘zbek nasri namunalari o‘zaro qiyoslanishi asosida olingan natijalarning amaliyotda keng qo‘llanilganligi va tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, dastavval, ingliz va o‘zbek nasri namunalari qiyosiy tadqiqot manbasi sifatida olinib, ularda tarixiy inversiyaning o‘rni, vazifalari, poetik mohiyati, vositalari, umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniq ilmiy-nazariy konsepsiya asosida ochib berilganida namoyon bo‘lganki, ayni jihat ishning ushbu yo‘nalishda kelajakda amalga oshirilajak tadqiqotlar uchun manba bo‘lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz va o‘zbek nasri qiyosi misolida ularda tarixiy inversiyaning o‘rni va rolga xos yetakchi tendensiyalarning o‘rganilishi asosida chiqarilgan xulosa va umumlashmalar uning amaliy ahamiyatini belgilab, bu boradagi mavjud ilmiy ma‘lumotlarni yanada boyitishda, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari filologiya fakultetlari talabalariga nasr poetikasi nazariyasi bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar o‘tishda, ushbu fanlardan ma‘ruza matnlari tayyorlashda, darslik va qo‘llanmalar yaratishda qo‘llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek badiiy nasrida tarixiy inversiya nazariyasi va poetikasini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek nasrida tarixiy inversiya badiiy asar strukturasi tashkil qilgan epik matn maydonida yo tugun, yo yechim sifatida asarning syujet va kompozitsiyasini uyushtirib kelishi, ijodkorning olam tuzilishi haqidagi tasavvuri va dunyoqarashini badiiy xarakterlar orqali aks ettirish vositasi, o‘ziga xos adabiy-estetik kategoriya ekanligi hamda undan har bir yozuvchi o‘z ijodiy niyati va yaratayotgan asarining g‘oyaviy konsepsiyasidan kelib chiqqan holda foydalanishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 25-maydagi №17.01/76-son ma‘lumotnomasi). Natijada jahon adabiyotida mustaqil janrlar sifatida baholangan roman, qissa, hikoyalar ijtimoiy hayotni, jamiyat va inson ongi taraqqiyotini aniq, xronologik aspektda, ba‘zan prospeksiya yoki retrospeksiya usullarida tarixiy inversiya vositasida aks ettirilishi, bashariyat va muayyan millat o‘tmishini haqiqat yoxud badiiy to‘qima sintezida ifodalashi asoslanishiga erishilgan;

ingliz va o‘zbek badiiy nasrida tarixiy inversiyaning *kelajak, abadiylik, kelajak zamoni esxatologik va murakkab tarkibli* turlari uning meta-rivoyat,

metafiktsiya va mifopeya adabiy hikoya qilish texnikasi va janrlari bilan o‘zaro sintezlashtirilgan variantlarda ifodalanib kelishiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy talim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 13-martdagi №693/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek nasridagi tarixiy inversiya, zamonlararo sayohat, vaqtning noan’anaviy o‘lchamlarda bo‘lishi, uning metafizik qonunlarga bo‘ysunmagan holatda mavjudligi, bu vaziyatda bashorat – sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan ko‘ra bilish yoki o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatish kabi muammolar ko‘rib chiqilgan asarlarni g‘oyaviy-badiiy jihatdan kompleks tahlil qilishning uslubiy yo‘llari aniqlangan;

tarixiy inversiya arxetip, aynizamonlik va esxatologizm singari badiiy hodisalar bilan uyg‘unlashib, mifopeya, tarixiy, maishiy, zamonaviy spekuliyativ fantastika janrida yaratilgan apokaliptik va post-apokaliptik ruhdagi nasr namunalari badiiy strukturasi tush, bashorat, mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, xayol, xotira kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 14-martdagi №02-09-66-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy asarlarning o‘ziga xos spesifikasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy inversiya hodisasining ingliz va o‘zbek nasrida qo‘llanishiga doir mulohazalar teletomoshabinlarning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini oshirishga, teleko‘rsatuv uchun tayyorlangan materialning mazmuni mukammallashishiga, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat, hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Badiiy ijodda “tarixiy inversiya” hodisasining nazariy asoslari va poetik mohiyati”** deb nomlangan bo‘lib, **““Vaqt” tushunchasi hamda uning badiiy mohiyati**”, **“Nasriy asarlarda inversiya hodisasining poetik ko‘rinishlari”**, **“Tarixiy inversiya, an’ana va zamonaviy yondashuvlar”** nomli uch fasldan tarkib topgan. Mazkur bobda badiiy adabiyotda vaqt tushunchasi, uning kategoriya sifatida voqelanishi, badiiy-estetik mohiyati, badiiy asarlarda vaqtning inversiyalashishi hamda uning poetik ko‘rinishlari, tarixiy inversiya, uning poetikasi, adabiyotshunoslikda konservativ hamda zamonaviy kontekstda bildirilgan nazariy yondashuvlar, hodisaning o‘ziga xosligi o‘rganildi.

Badiiy vaqt –qahramon haqiqati bilan bog‘liqdir. Unda badiiy hodisalarning obyektivlashtirilgan foni bo‘lgan konseptual vaqtda tashqi voqelik qabul qiluvchiga mos shakllarda modellashtiriladi. Badiiy vaqt – bu estetik voqelikning shakli, dunyoni bilishning o‘ziga xos usuli. Adabiyotda vaqtni modellashtirish ushbu so‘z san’atining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Badiiy vaqt asarning eng muhim kompozitsion komponenti bo‘lib, u obyektiv vaqt bilan bir xil emas. Vaqt badiiy omil sifatida tasvirning obyekt, predmeti va vositasi⁷ bo‘lib kelganda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1. Badiiy vaqt – poetik to‘qima hosilasi. 2. Badiiy vaqt obyektiv vaqtdan farq qiladi. Unda syujet vaqti amal qiladi va hikoyada tezlashtiruvchi / kechiktiruvchi vazifalarni bajaradi. 3. Haqiqiy vaqt va tasvirlangan vaqt butun badiiy asarning muhim jihati bo‘lib, imkoniyatlari cheksiz va xilma-xildir. Ular asarning badiiy konsepsiyasi bilan birlashadi. 4. Badiiy asardagi vaqt nafaqat voqea-hodisalarning o‘zaro bog‘liqligida, balki taqvimda ham hisobga olinadi. 5. Badiiy vaqt faqat syujet ichida sodir bo‘ladi, asardan tashqarida sodir bo‘lgan voqealarga aloqador bo‘lmaydi. 6. Badiiy vaqt tezlashishi va sekinlashishi mumkin. Ko‘pincha asarning harakat vaqti asta-sekin susayadi yoki tezlashadi. Badiiy vaqt har xil tezlikda rivojlanayotgan, bir vaqtdan ikkinchisiga, oldinga va orqaga tashlangan bir necha vaqtga ega bo‘lishi mumkin. 7. Vaqt tasviri illuzion bo‘lishi mumkin (ayniqsa, sentimental yo‘nalishdagi asarlarda) yoki o‘quvchini uning haqiqiy bo‘lmagan, odatiy doirasiga kiritishi mumkin. Bu muallifning badiiy niyatiga bog‘liq, lekin u o‘z davri uchun odatiy, vaqt harakati haqidagi g‘oyalarga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Vaqt – bu faqat bitta yo‘nalishda, ya’ni o‘tmishdan hozirga, hozirgi zamondan kelajakka tomon oqadigan qaytarilmas oqimdir. Ammo u badiiy adabiyotda poetik hodisa sifatida namoyon bo‘lganda goh ortga qaytarilsa, goh oldinga siljiriladi. Badiiy inversiya fleshbek, flesh-forward, analepsiya, retrospeksiya, prospeksiya, anaxronizm singari poetik ko‘rinishlarda akslanadi.

Badiiy vaqtning inversiyalashuvi nafaqat **“tarixiy inversiya”** shaklida, balki boshqa poetik ko‘rinishlarda ham namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi⁸. Xronosda quyidagi inversiya shakllari kuzatilishi qayd etiladi:

⁷ Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – М.: Наука, 1979. – С.209.

⁸ Шубин Р. «Историческая Инверсия» Михаила Бахтина в свете консервативного, прогрессивного и мифотворческого мышления. — П.: Przegład Rusycystyczny, 2021. – С. 11. <https://orcid.org/0000-0002-7603-5336>

- 1)Xarakterologik inversiya;
- 2)Anoxronizmlar;
- 3)Kompozitsion inversiya.

Baxtin ko‘pincha xarakterologik inversiya turlarini “Tarbiya romanlari” ichida aks ettirishga urinsa, “К вопросам теории романа” kitobida esa anaxronizmlarning ma‘no-mohiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Anaxronizmlarning zamonaviylikni tarix sifatida tasvirlash xususiyati, ya‘ni hozirgi zamon voqeligi o‘tmish bilan uyg‘unlashib, birlashishini bayon qiladi. Kompozitsion inversiya esa adabiy matn syujet va fabula qismida xronologik, kompozitsion va adabiy sifatlarning o‘zaro nomutanosibligida anglashiladi.

M. Baxtin “Romanda zamon va xronotop shakllari” risolasining to‘rtinchi bobida g‘alati bir termin, aniqroq aytganda, “tarixiy inversiya” deb nomlanuvchi hodisaga to‘xtalib, uni folklor xronotopi muammosi negizida o‘rganadi. Tarixiy inversiyaning muhim vazifalaridan biri, o‘tmish va hozirni, hozir va kelajakni o‘zaro bog‘lashida va shu orqali tarixiy poetik ahamiyat kasb etishida ko‘rinadi. Tarixiy inversiya mohiyatan shunga olib keladiki, bunda mifologik va badiiy tafakkur o‘tmish doirasidagi maqsad, ideal, adolat, barkamollik, insonning uyg‘unlashgan holati, jamiyat va hokazo kategoriyalarida cheklanib qoladi. Jannat, oltin asr, qahramonlik asri, ilk haqiqat to‘g‘risidagi miflar – tabiiy holatlar, asl huquqlar va boshqalar xususidagi bir qadar qadim tasavvurlar – aynan tarixiy inversiya ifodasi hisoblanadi. Bu o‘rinda nimaki o‘tmishda bo‘lib o‘tgan deya tasvirlansa, aslida kelajakda ro‘y berishi mumkin yoki kelajakda ro‘y beradigan rivoyada bevosita namoyon bo‘ladi.

Badiiy zamon va makon olam manzarasining poetik tasvirini parallel yaratish, o‘tmish + hozir + kelajak voqealarini bir syujet chizig‘iga solib tasvirlash, o‘tib ketgan hamda bo‘lajak voqealarni hozirdan turib tizimlashtirish, ularda yashagan va yashaydigan odamlarning obrazlarini, ruhiy olamini, olam va odam munosabatlarini ifodalash oson emas. Tarixiy inversiya vositasida amalga oshiriladigan bu xatti-harakat mohiyati, ahamiyati o‘ziga xos.

R. Szubin o‘z maqolasida ta’kidlaganidek, inversiya har doim haqiqatdan keyin orqaga qarab amalga oshiriladi va bu Baxtin fikrining pafosidir. Inversiyaning asosi narsalarning tabiiy yo‘nalishini aqliy tartib bilan ortga va oldinga ko‘chirish va almashishiga turtki berishdir⁹. Muallif go‘yo kitobxonni o‘tmishdagi qaysidir davr zamoniga xayolan o‘tkinchi lahzada mavjudligiga yoki kelajakning esxatologik sahnalarida ong osti ta’sirida his qilishi va ijodkor tomonidan vaqtsizlik, abadiyat xususiyatlarini anglatirishiga erishiladi.

Tarixiy inversiya hodisasini qadim hamda zamonaviy faylasuflar atroflicha o‘rganishga urinishgan hamda mavjud chigallik va muammolarni, yutuq va kamchiliklarni o‘z fikr doiralari o‘laroq tadqiq qilishga erishishgan. Dastlab Aristotel inversiya holatini fikr ustuvorligi negizida shakllantirishga urinib, qiyofa va mazmun ushbu harakat rivojlanishiga turtki beruvchi omil deb biladi va Baxtin uning ta’limotini tarixiy inversiya deb baholaydi. Ammo, XX asr 60-yillarida G. Gachev Aristotel ta’limoti faqatgina inversiya ekanligining sababi o‘tmishda emas,

⁹ O‘sha manba; B.11.

balki kelajakda mahalliylik va inversiya kuchi bilan oldinga o'tgandek tushuntiradi. Keyingi bosqichda Prometeyev hamda Epimeteyevlarning ilgari surgan nazariyalariga ko'ra, inversiv sharoit shakllanishida maxsus me'yor mavjud bo'lib, u "Prometeyev tartibi asosida ya'ni *fikr, so'z, ish* – ustuvorligiga qarama-qarshi tarzda Epimeteyev nizomi ya'ni *ish, so'z, fikr* tarzida namoyon bo'ladi. Ushbu ikkala tartib ham turli darajadagi anglashilish holati bo'lib, insoniyat tomonidan ma'lum amaliyotni amalga oshirishda o'y hamda sodir bo'lishlikkacha bosqichlarni mustasnoli tarzda uqishlikka undaydi. Bir so'z bilan aytganda, yuqoridagi me'yor tamoyillari an'anaviy va inqilobiy hisoblanadi.

Faylasufning yangiligidan bir fursat so'ng N. Berdyayev aynan shu ta'limotga o'xshash fikrni "ong aberatsiyasi" deb nomlab, ongning bu aberatsiyasi insoniyat vaqtini ibtidoiy tarixiga olib borishidan kelib chiqadi. Bu odamning idroki haqiqatdan chetga chiqadigan vaziyatlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan atama.

Tarixiy inversiyadan foydalangan asarlar "parabola"lik xususiyatiga ega bo'ladi. Bunday asarlarda tarixiy inversiya qahramon hoziriga parallel ravishda o'tmish yoki kelajak manzaralarini asar syujetiga analitik va sintetik holatda singdirib borish imkonini beradi. Ammo o'tmish, hozir va kelajakka oid voqealar silsilasining parallel xronotopni hosil qilishi asarni mustaqil qismlarga ajratib yubormaydi. Yozuvchining olam va odam haqidagi falsafiy konsepsiyasi asar ichki yaxlitligini to'la ta'minlab keladi. Asar kontekstidagi parabola o'zining zohiriy ma'nosini yo'qotib, botiniy suratda axloqiy, falsafiy va diniy mohiyatlarni parallel xronotop asosida ochib beradi.

Dissertatsiyaning "**Ingliz va o'zbek romanlarida tarixiy inversiyaning bilvosita istifoda etilishi**" deb nomlangan ikkinchi bobi "Tarixiy inversiyaning afsona va rivoyat janrlari vositasida sintezlashuvi", "Tarixiy inversiya hamda arxetip", "Tarixiy inversiya, aynizamon va esxatologizm mushtarakligi" nomli uch fasldan tarkib topgan. Mazkur bobda tarixiy inversiyaning afsona va rivoyat janrlari bilan sintezlashgan holda namoyon bo'lishi; afsona va rivoyat janrlari orqali tarixiy inversiyaning shakllanishida ingliz va o'zbek ijodkorlari ilgari surgan motivlar diniy-madaniy genezisga borib taqalishi; tarixiy inversiya shakllanishida romaniy davom etayotgan vaqt, ya'ni ichki vaqtga¹⁰ qo'qqisdan tashqi (mifologik) harakat ta'siri natijasida ichki-romaniy vaqt yopilib, tashqi zamonning ochiq formatda tasvirlanishi; o'zbek yozuvchilarining kelajak bilan bog'liq kashfiyotlariga oid syujetlarda arxetipik tarixiy inversiyadan mohirlik bilan foydalanishi; ingliz jamiyatidagi turli muammolar, quldorchilikga qarshi g'oyalar mualliflar tomonidan tarixiy inversiya vositasida yoritilishi; tarixiy inversiya nazariyasidagi uch zamon kategoriyasi romanlar struktural formasida akslanib, tarixiy inversiya formulasini hosil qilishi singari masalalar tahlil qilingan.

Tarixiy inversiya o'tmish va hozir orqali kelajakni yoki kelajak orqali o'tmish va bugunni ifodalovchi yoki unga ishora etuvchi hodisa sifatida badiiy adabiyotda shartli ravishda bir qancha irrashional elementlar orqali hosil qilinadi. Bu irrashional elementlar xotirlash, tush, bashorat, xayolot, mif, afsona, rivoyat, ertak, naql

¹⁰ Брежнева Е. «Время внешнее» и «Время внутреннее» в поэтике романов Вирджинии Вулф. — П.: Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология, 2011. — С. 225-231. <https://cyberleninka.ru/article/n/vremya-vneshnee-i-vremya-vnutrennee-v-poetike-romanov-virdzhinii-vulf>

singari mifologik yoki psixologik shakllardan sintezlashuv natijasida yuzaga keladi.

Badiiy adabiyotda tarixiy inversiya hodisasining namoyon bo'lishi maqsadida ijodkor turli vaqt zamonlari hamda madaniyat sivilizatsiyalariga taaluqli bo'lgan mifologik obraz, syujet, motiv va o'ziga xos xususiyatlar uyg'unligida o'z ijodiy ishini yaratadi. Ushbu hodisa zamonlar osha fojiali tarzda takrorlanib kelayotgan muammolarni ko'pincha tarixiy afsona va rivoyatlar orqali ko'rsatib, o'tmish va hozirning inversiyalashuvini ta'minlab keladi. Bunday xarakter-xususiyat tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlangan barcha romanlarda mavjud. Ammo ingliz hamda o'zbek adabiyoti yozuvchilarining o'z diniy e'tiqodlari, madaniy-ma'rifiy qarashlari doirasidagi tafovut sabab mazkur mifologik xususiyat ikkala adabiyotda turli bir-birga o'xshamagan ma'no-mohiyatidagi g'oyalarni ilgari suradi. Misol uchun, o'zbek yozuvchilari ijodida qahramonlarning Yaratganga isyon keltirishi; o'zini unga tenglashtirishi, yetuklik sifatlarini haddan ortiq bo'rttirishi; odam bolasining qo'lidan kelmaydigan, faqatgina Tangri taolloga xos sifatlarini o'zlashtirishga urinishi kabi salbiy jihatlarga qarab siljishi kuzatiladi. Masalan, Isajon Sulton romanida bo'ron motivi berilgan bo'lib, asar oxirida ko'plab insonlar ushbu ofat tufayli hayotdan bevaqt ko'z yumadilar. Tarixiy-mifologik adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, odamlarning Yaratganga isyoni sabab xuddi shu kabi talofotlarning kelishi, insoniyatning o'z qilmish xatolari ustida o'ylanishi, gunohlarni tuzatishga undash chorlovlari mazmunidagi matnlar mavjud. Milliy adabiyot namunalari tarixiy inversiyaning bu ko'rinishda gavdalantirilishi, aynan ulardan xulosa chiqarib, itoat qilishlik mafkurasi singdirilgan.

G'arb madaniy-mifologik qarashlari doirasidagi farq, ingliz zamonaviy adabiyoti namoyondalaridan biri, Devid Mitchell ijodi asosida, roman qahramonlarining har biri o'zining tarixiy lahzalari bilan uyg'ongan qutqaruvchi, xuddi insoniyat tarixida qayta-qayta dunyoga keluvchi xaloskorga tenglashtirilishi tarixiy inversiyaning afsona motivi orqali voqelanilishiga misol bo'lmoqda. *"Henceforth Moriori unions were proscribed & all issue fathered by Maori men on Moriori women were declared Maori. The earliest transgressors were executed in gruesome ways & the survivors lived in that state of lethargy engendered by relentless subjugation¹¹"*. Ushbu parcha tarixiy inversiyaning afsona va xotira vositasida shakllanishiga misol bo'lib, muallif bu parchaning aynizamonlik holatidan o'tmish chizgilari bilan bevosita uyg'unlashtirib, *Maori, Moriori* nomli qadimgi qabilalar, *Old Rēkohu* qadimgi joy nomi qayd etilishi orqali voqelantirilmoqda. Ijodkor parchada tasvirlayotgan vaqt xuddi bir lahza to'xtab, ya'ni 1850 yil sanasi ortga 1835-36¹² yilga qaytgandek inson ongida aberatsiyalanadi. Shu o'rinda muallif o'z qahramonini mifologik obraz Injil rivoyatini aks ettiruvchi xaloskor – qutqaruvchi "Jannatdan tushgan Iso siymosida" gavdalantirib, qullik va eksplutatsiya bilan qarshi yuzlangan holda yer yuzidagi adolatsizliklarga barham berish, aybsizlikni yo'qotish kabi mavzular doirasida turli mifologiyalarda tasvirlangan inoyatdan qulashni aks ettiradi.

¹¹Mitchell D. Cloud Atlas. – L.: Sceptre, 2004. – P.32.

¹² https://www.moriori.co.nz/wp-content/uploads/2019/09/MOJ0030.42_DoS_Moriori_WEB.pdf

Tarixiy inversiya voqelanishida faqat mifologik vositalar emas, balki arxetipning ham roli mavjud bo‘lib, uning eng asosiy sifati bu – originalligida bo‘lib, ma’lum bir obraz, syujet, motiv o‘zining aslligi kabi xohlagan bir adabiy matnda qayta gavdalanadi. Shu gavdalanish vaqtida kitobxonning muallif mahorati o‘laroq dastlabki reallik davriga ishora orqali lahzali fursatda anglash nuqtasi yordamida qaytishi tarixiy inversiyaning arxetip yordamida hosil bo‘lish usuli shakllanadi. Shu o‘rinda qaytish iborasi orqali vaqtning ortga yoki oldinga harakati emas, balki uning doimiy harakati chog‘ida oniy lahzada dastlabki ibtido zamonni tafakkur tushunchasi yordamida anglanishi nazarda tutilmoqda. Keling fikrimizni misol yordamida dalillasak: *nafsingizni tiyib, yog‘li narsalardan parhez qiling, yo‘qsa, anqoning urug‘iyam kor etmaydi sizga...*¹³. Ushbu misol Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanidan keltirilib, unda ijodkor tomonidan ishlatilgan anqoning urug‘i iborasi tarixiy inversiya shakllanishi uchun yagona va asosiy elementdir. Chunki anqo so‘zi afsonaviy noyob qush bo‘lib, Qadimgi Sharq qissa va dostonlarida uchraydigan patlari oltin va kumushdan bo‘lgan, baxt-omad ramzidir. Misolda esa *anqo* so‘zi bevosita kitobxonni aynan qadimgi mifologik davrga yetaklayotganligi tufayli, ayni hodisot ko‘rinish bermoqda. Bu kabi tarixiy inversiyaturlari tadqiqotimizning barcha obyektlarida mavjud. Demak, insoniyat ongi bilan mifologik yoki arxetipik bilimning qo‘shilishi yordamida sodir bo‘luvchi hodisot yuzaga keladi.

Ong aberatsiyalanish jarayonida o‘tmish sahnalariga ishoraviy hukm turli yo‘nalishlarda amalga oshirilib, badiiy vaqtning poetik sifatlari o‘laroq parallellik yordamida kelajak davri bilan birga uyg‘unlashadi. Ushbu uyg‘unlikning kelajak sathini namoyishida esxatologizm termini fundamental ma’no kasb etadi. Esxatologiya bu ilohiyot tushunchalari bilan bevosita bog‘liq atama bo‘lib, barcha diniy qarashlarda mavjud bo‘lgan, hozir davom etayotgan vaqt davrining tugallanishi; tasvirlanilayotgan zamonning oxiri, dunyo intihosi; insoniyat asrining halokati, butun kishilik jamiyati, sivilizatsiyasining falokatga yuz tutishi-apokalipsis, odamizotning yakuniy taqdiri, hukm qilingan taqdirning azalligi va o‘zgarilmasligi, insoniyat va ruhning qismati; mahshar kuni tasvirlari kabi bir qator g‘oyalardan anglashilib keladi.

Shu o‘rinda tarixiy inversiyaning shakllanish xususiyatlaridan biriga nazar tashlasak, uning vujudga kelishi jarayonida, kelajak hisobiga ya’ni hali mavjud bo‘lmagan vaqtlilik tasavvuri (irratsional vositalari) ila hozirgi va ayniqsa o‘tmish rivojlana kuchaya boradi: *“I dreamt of a ... nightmarish café, brilliantly lit, but under-ground, with no way out. I’d been dead a long, long time. The waitresses all had the same face. The food was soap, the only drink was cups of lather. The music in the café was” – he wagged an exhausted finger at the MS – “this.”*¹⁴ Ushbu parcha “Cloud Atlas” romanining ikkinchi hikoyasi “Letters from Zedelghem” qismidan, Vyvyan Ayrs ismli mashhur bastakor Frobisher bilan yangi musiqa yaratish vaqtida ikki parallel ichki hamda tashqi qatlamli holat-vaziyat amalga oshirilmoqda. Ya’ni birinchidan, muallif kitobxonga keksa bastakorning musiqa

¹³ Hamdam U. Isyon va Itoat. – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – B.6.

¹⁴ Mitchell D. Cloud Atlas. – L.: Sceptre, 2004.– P.72.

yaratish chog'ida uning kuchli xohishi ila noodatiy, juda mukammal darajadagi pafosli musiqasini yaratish hissi shakllanib, u o'zining tushi orqali ushbu istakka erishdi va M. Baxtin ilgari surgan konsepsiya bo'yicha kelajakda (bastakorning o'lganligi- *I'd been dead a long, long time*) hali sodir bo'lishi lozim bo'lgan voqea (musiqa yaratilishi), irratsionallik vositasida (tush) aynizamon harakati tugatilishi uchun xizmat qilmoqda. Tarixiy inversiya konsepsiyasiga asosan hali sodir bo'lmagan kelajak harakati yordamida hozirda davom etayotgan voqea rivoji uchun, yoki bo'lmasa o'tib bo'lgan vaqt taraqqiyoti sababchisiga aylanadi. Ushbu tarixiy inversiyaning poetik shakllanishida badiiy vaqtning qisqa fursatda bir necha yil ko'rsatkichi orqali kengayishining cho'zilishini kuzatish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o'zbek romanlarida tarixiy inversiya hodisasining struktural komparativistikasi”** nomli uchinchi bobi “Ingliz va o'zbek romanlarida boqiylik, abadiyat va zamonsizlik kategoriyalarining badiiy-estetik vazifalari”, “Olam-odam munosabatlari tasvirida tarixiy inversiyaning roli”, “Ingliz va o'zbek romanlarida tarixiy inversiya hodisasining poetik ifodalanishida yozuvchi mahorati hamda individualligi” nomli uch fasldan iborat. Tadqiqot ishimizning mazkur bobida ingliz va o'zbek romanlarida tarixiy inversiyaning boqiylik, abadiyat va zamonsizlik formalarida namoyon bo'lishi, olam hamda odam munosabatlari talqinida tarixiy inversiya vositasida istifoda etilishi, mazkur hodisa voqelanishida mualliflar mahorati struktural-komparativistik jihatdan tahlilga tortilib, o'ziga xos talqinini ochib beriladi.

